

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA “YOSHLAR SUBMADANIYATI”GA
OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SOTSIOLINGVISTIK VA
MADANIYATLARARO TAHLILI**

**СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И МЕЖКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С «МОЛОДЁЖНОЙ
СУБКУЛЬТУРОЙ», В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.**

**A SOCIOLINGUISTIC AND INTERCULTURAL ANALYSIS OF
PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED TO “YOUTH SUBCULTURE” IN
GERMAN AND UZBEK.**

Abdurazzakov Yusufjon Usmoilovich

FarDU., katta o`qituvchi,

e-mail: yusuffer@mail.ru Telefon: +998939829864

orcid.org/0000-0001-6331-6342

Anotatsiya: *Ushbu maqolada nemis tilidagi frazeologik birliklar asosida erkaklik va ayollik konseptlarining ifodalanishi sotsiolingvistik hamda madaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Iboralar orqali jamiyatdagi jinsiy rollar, stereotiplar va ijtimoiy kuch munosabatlari aks ettiriladi. Shuningdek, o‘zbek tili bilan qiyosiy tahlil asosida madaniy tafovutlar ham o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, jinsiy rollar, erkaklik, ayollik, stereotiplar, sotsiolingvistika, madaniyat*

Аннотация: *В статье рассматривается, как концепты мужественности и женственности отражаются в немецкой фразеологии с точки зрения социолингвистики и культурологии. Фразеологизмы передают общественные представления о гендерных ролях, стереотипах и иерархиях. Также проводится сравнительный анализ с узбекским языком, чтобы выявить культурные различия и сходства в гендерных выражениях.*

Ключевые слова: *фразеология, гендерные роли, мужественность, женственность, стереотипы, социолингвистика, культура*

Abstract: *This article explores how concepts of masculinity and femininity are reflected in German phraseology from a sociolinguistic and cultural perspective. Phraseological expressions convey societal views on gender roles, stereotypes, and hierarchies. A comparative analysis with the Uzbek language is also conducted to identify cultural differences and similarities in gender-related expressions.*

Keywords: *phraseology, gender roles, masculinity, femininity, stereotypes, sociolinguistics, culture*

Dunyo filologiya ilmida til, jins va yosh o'rtasida ijtimoiy va lisoniy aloqani o'rganishga oid sotsiolingvistik tadqiqotlar so'nggi paytlarda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim vazifalardan bo'lib kelmoqda. Qolaversa, G'arb tillarida jins bilan bog'liq iboralar gender tenglik va erkinlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, ular madaniyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiradi. O'zbek tilida esa jinsga oid frazeologik birliklar ko'proq an'anaviy ijtimoiy rollarga urg'u beradi va oila, jamiyat kabi qadriyatlar bilan bog'liq tarzda shakllanadi. Jumladan, o'zbek tilida "katta avlod" yoki "keksalikka hurmat" kabi iboralar milliy an'analarning ta'sirida shakllangan bo'lsa, nemis tilida "jung bleiben" (yosh qolish) yoki "sich jung fuhlen" (o'zini yosh his qilish kabi ifodalar individualizm va erkinlik qadriyatlariga bog'liq. Bu kabi tillararo o'xshashlik va farqlar turli madaniyatlar o'rtasida kommunikatsiyaning chuqurroq bo'lishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda tilshunoslik sohasida olib borilayotgan sotsiolingvistik tadqiqotlar til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni madaniyatlararo muloqot doirasida yoritib bermoqda. Mazkur masalalardan biri bo'lgan tilning jins va yosh xususiyatlarining shakllanishiga ta'sirini o'rganish jamiyatdagi murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlar dinamikasini ochib berishga, diskriminatsiya va tengsizlikni yengish uchun siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda, shuningdek, turli jins va yoshdagi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Zero, "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir". YUNESKO tashabbusi bilan 2019-yildan O'zbekiston ta'lim mazmuniga ham gender yondashuv tatbiq qilindi. Shunday ekan, O'zbekiston ta'lim tizimiga innovatsion o'zgarishlar kiritishda mazkur tadqiqot mavzusi ham dolzarb hisoblanadi.

Ch.Fillmore, P.Key va M.O'Connor kabi olimlar frazeologik birliklarning semantik tahliliga katta e'tibor qaratgan. Ularning "Grammatik konstruksiyalarda muntazamlilik va idiomatiklik: Let Alone holati" ("Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone") asarida frazeologik birliklarning tuzilishi va ma'nosi o'rganilgan.

Bu kabi ilmiy ishlar til va madaniyatning o'zaro ta'sirini chuqurroq anglashga yordam berib, turli tillarda "yosh" va "jins"ga oid frazeologik birliklarning sotsiolingvistik tadqiqini rivojlantirishga zamin yaratadi. Shu orqali tilshunoslar jamiyatdagi ijtimoiy rollar, stereotiplar va qadriyatlarining tilga qanday aks etishini tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. Umuman olganda, jahon tilshunosligida R.Lakoff, D.Tannen, J.Koates, T.Laurites, M.Rosaldo, L.Lamferet, P.Norris, P.Uner, A.Rich, G.Gabin, Sh.Bern, M.Stuart kabi olimlar tomonidan gender masalalari o'rganilgan.

Rossiya va MDH mamlakatlari tilshunosligida ham V.N.Teliya rus tilining frazeologik tizimini o'rganib, uning semantik va pragmatik jihatlariga e'tibor qaratgan, N.D.Arutyunova esa tilning ijtimoiy va madaniy jihatlarini, jumladan, jins va yosh

bilan bog'liq masalalarni yoritgan. Qozog'istonda S.S.Qaskabasov qozog' tilidagi frazeologik birliklarning milliy va madaniy xususiyatlarini o'rgangan, Ozarbayjonda esa A.V.Gurbanov ozarbayjon tilidagi frazeologizmlarni tadqiq qilgan. O'zbekistonda bu mavzu hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lsa-da, o'zbek tilshunoslari frazeologiya va sotsiolingvistika yo'nalishlarida tadqiqotlar olib bormoqda. Biroq, aynan "yosh" va "jins"ga oid frazeologik birliklarning sotsiolingvistik tahlili bo'yicha ilmiy ishlar kam uchraydi. Shu sababli, bu yo'nalishda izlanishlar olib borish va ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish jahon tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Umumiy ro'yxatda Rossiya va MDH mamlakatlari tilshunosligida lisoniy birliklarning turli aspektlardagi xususiyatlarini o'rganish bo'yicha bir qator yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Neyrolingvistika sohasida L.S.Vygotskiy va A.R.Luriya kabi olimlar, psixolingvistika bo'yicha esa A.A.Leontyev, Y.N.Karaulov va A.A.Zalevskaya kabi muhaqqiqlar muhim hissa qo'shishgan. Kognitiv lingvistika yo'nalishida E.Kubryakova, A.Vejbitskaya, Z.Popova va I.Sternin kabi olimlarning ishlari ko'zga ko'rinadi. Shuningdek, gender tilshunosligi sohasida A.V.Kirilina, I.I.Xaleyeva, E.I.Goroshko, O.A.Voronin va E.A.Kartushin o'z tadqiqotlarida gender xususiyatlarini chuqur tahlil qilishgan. O'zbek tilshunosligida frazeologiya va sotsiolingvistika yo'nalishlarida tadqiqotlar mavjud. Aynan "yosh" va "jins"ga oid frazeologik birliklarning sotsiolingvistik tahlili rivojlanib kelmoqda.

R.Sharafutdinov o'zbek tilining frazeologik tizimini o'rganishda hissa qo'shgan olimlardan biri. Uning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (2004) asarida frazeologik birliklar to'plangan va izohlangan. G.Karimov o'zbek tilshunosligida sotsiolingvistika sohasida tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlarida til va jamiyat munosabatlari yoritilgan.

Gender masalasi alohida muammo sifatida tadqiq qilinishi yaqin yillarda boshlangan. Xususan, Sh.Iskandarova ayollar nutqida uchraydigan o'ziga xos til birliklarini o'rgangan bo'lsa, F.Musayeva o'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishini tadqiq qilgan. N.Qosimova jins va til munosabatlarini o'rganishda hissa qo'shgan olim. Uning maqolalarida o'zbek tilida jinsga oid til birliklarining xususiyatlari tahlil qilingan. Gender bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar hozirda o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, jins tushunchasiga oid ba'zi tadqiqotlar anchagina keng o'rganilgan. O'zbek tilida va boshqa tillarda jins tushunchasining ifodalanishi haqidagi tadqiqotlar tavsifiy va qiyosiy xarakterda yoritilgan bo'lib, ayniqsa, M.Rasulovning izlanishlari alohida e'tiborga loyiq.

O'zining "Fransuz va o'zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi" nomli ishida R.S.Ibragimova gender termini haqida shunday fikr bildiradi: "Gender" atamasi dastlab A.Oukli va N.Zemon Davis tomonidan sotsiologiyaga kiritilgan. Fransuz tilida uni "catégorie sociale de sexe", "études de genre" yoki "théorie du genre" nomlari bilan uchratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jahonda “yosh” va “jins”ga oid frazeologik birliklarning sotsiologiyistik tadqiqi bo‘yicha yetarli ilmiy ishlar mavjud. Rossiyada va MDH mamlakatlarida ham bu mavzuda tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbekistonda ham ushbu mavzu o‘rganilib kelinmoqda, biroq turli tizimli tillarda “yosh” va “jins”ga oid frazeologik birliklarni o‘rganishning nazariy asoslarini o‘rganishda ba’zi masalar borligi bu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa mavzuning dolzarbligini va tadqiqotning ahamiyatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 21-oktabr, PF–5850. – Toshkent.
2. UNESCO. From access to empowerment: UNESCO strategy for gender equality in and through education 2019–2025. – Paris: UNESCO, 2019.
3. UNESCO. Global education monitoring report 2019: Gender report. – Paris: UNESCO, 2019.
4. Jumaniyozova S. O‘zbek tili va uni o‘qitilishining muhim masalalari // Ilmiy elektron jurnal. – 2025.
5. Yusupova G. Expression of gender in German and Uzbek phraseology // Scientific Journal of Fergana State University. – 2023.
6. Gulxumor Y. Reflection of gender aspect in Uzbek and German languages // Eurasian International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023.
7. Nurullayev K.T. Structural-grammar characteristics of verbal somatic phraseologies in German and Uzbek languages // CyberLeninka elektron bazasi orqali e‘lon qilingan maqola. – 2021.
8. Comparative Analysis of Equivalence of Somatic Phraseological Units in German and Uzbek Languages // International Journal of Early Childhood Special Education. – 2021.
9. Khamidullaevna M.M. Comparative semantics of gender in English and Uzbek phraseological units // World Scientific Research Journal. – 2025.
10. Intercultural idiomatic expression in German and Uzbek: a comparative study // Cogent Arts & Humanities (onlayn maqola). – 2025.